



TURLI TASHKILIY VA HUQUQIY SHAKLLARDAGI SUBYEKTLARDA (MCHJ, AJ, KOOPERAYIV VA NT LARDA) BUXGALTERIYA HISOBI

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna¹,

Ruziyev Ulug‘bek Aziz o‘g‘li²

¹ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Buxgalteriya hisobi” kafedrası katta o‘qituvchisi

dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

² Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Ulugbekaziz2002@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘quv markazlarida buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘quv markazlarining turli huquqiy shakllari – MCHJ, AJ, kooperativ va nodavlat notijorat tashkilot (NT) – uchun buxgalteriya hisobi tashkil etilishi, uning tartibi va amaliy farqlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozori kengayib borayotgan bir paytda o‘quv markazlarining moliyaviy hisobotlarini to‘g‘ri yuritishi, soliq va moliya nazoratiga rioya qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada adabiyotlar tahlili asosida buxgalteriya hisobining asosiy printsiplari, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida buxgalteriya tizimi ko‘rib chiqildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida hujjatlarni tahlil qilish, taqqoslash, ekspert so‘rovi va o‘quv markazlarining amaliy misollari asosida analiz olib borildi. Natijada o‘quv markazlarda moliyaviy hisobni tashkil etishda huquqiy shaklga bog‘liq asosiy farqlar (soliq rejimi, hisobot shakllari, daromad manbalari, xarajatlar strukturasidagi farqlar) aniqlanib, ularni optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi. Tadqiqot natijalari o‘quv markazlarida buxgalteriya hisobi samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va nazorat organlari talablariga mos keladigan hisobotlar tayyorlashga xizmat qiladi.



Tayanch soʻzlar. Buxgalteriya hisobi, oʻquv markaz, MCHJ, AJ, kooperativ, nodavlat notijorat tashkilot (NT), moliyaviy hisobot, soliq rejimi, daromad, xarajat, hisob-kitob.

**БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ В СУБЪЕКТАХ РАЗЛИЧНЫХ
ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ФОРМ
(ООО, АО, КООПЕРАТИВАХ И ННО)**

Худайнзарова Дилноза Гафуровна¹,

Рузиев Улугбек Азиз угли²

*¹ Самаркандский институт экономики и сервиса
старший преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет»*

dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

² Студент Самаркандского института экономики и сервиса

Ulugbekaziz2002@gmail.com

Аннотация. Данная статья посвящена изучению теоретических и практических аспектов организации системы бухгалтерского учета в учебных центрах. В работе анализируются особенности ведения бухгалтерского учета в учебных центрах различных организационно-правовых форм — обществах с ограниченной ответственностью (ООО), акционерных обществах (АО), кооперативах и негосударственных некоммерческих организациях (ННО), а также порядок его ведения и практические различия. Актуальность исследования обусловлена тем, что в условиях расширения рынка образовательных услуг особое значение приобретает правильное ведение финансовой отчетности учебными центрами и соблюдение требований налогового и финансового контроля.



В статье на основе анализа научной литературы рассмотрены основные принципы бухгалтерского учета, действующее законодательство Республики Узбекистан и международные стандарты финансовой отчетности (IFRS). В качестве методологии исследования использованы методы анализа документов, сравнительного анализа, экспертного опроса, а также практические примеры деятельности учебных центров. В результате исследования выявлены основные различия в организации финансового учета в учебных центрах в зависимости от их организационно-правовой формы (налоговый режим, формы отчетности, источники доходов, структура расходов) и предложены практические рекомендации по их оптимизации. Результаты исследования способствуют повышению эффективности бухгалтерского учета, обеспечению финансовой устойчивости и подготовке отчетности, соответствующей требованиям контрольных органов.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, учебный центр, ООО, АО, кооператив, негосударственная некоммерческая организация (ННО), финансовая отчетность, налоговый режим, доходы, расходы, расчеты.

ACCOUNTING IN ENTITIES OF VARIOUS ORGANIZATIONAL AND LEGAL FORMS (LLC, JSC, COOPERATIVES, AND NON-PROFIT ORGANIZATIONS)

Khudaynazarova Dilnoza Gafurovna¹,

Ruziyev Ulugbek Aziz ogli²

*¹ Samarkand Institute of Economics and Service
Senior Lecturer of the "Accounting" Department*

dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

² Student of Samarkand Institute of Economics and Service

Ulugbekaziz2002@gmail.com



Abstract. This article is devoted to the study of theoretical and practical aspects of organizing an accounting system in educational centers. The paper analyzes the specifics of accounting practices in educational centers operating under different organizational and legal forms, such as Limited Liability Companies (LLC), Joint-Stock Companies (JSC), cooperatives, and non-governmental non-profit organizations (NPO), as well as the procedures and practical differences in accounting organization. The relevance of the research is determined by the rapid expansion of the educational services market, which increases the importance of accurate financial reporting and compliance with tax and financial regulations. Based on a review of academic literature, the article examines the fundamental principles of accounting, the current legislation of the Republic of Uzbekistan, and International Financial Reporting Standards (IFRS). The research methodology includes document analysis, comparative analysis, expert surveys, and the examination of practical case studies from educational centers. As a result, key differences in financial accounting organization depending on the legal form of educational centers (tax regimes, reporting formats, sources of income, and cost structures) were identified, and practical recommendations for optimization were proposed. The findings of the study contribute to improving accounting efficiency, ensuring financial sustainability, and preparing reports that comply with regulatory requirements.

Keywords: accounting, educational center, LLC, JSC, cooperative, non-profit organization (NPO), financial reporting, tax regime, income, expenses, settlements.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasida xususiyl o'quv markazlari, kurslar va ta'lim xizmatlari ko'payib bormoqda. O'quv markazlarining moliyaviy faoliyati (abonent to'lovlari, darsliklar, o'qituvchilarga haq to'lash, ijara va boshqa xarajatlar) samarali boshqarilmasa, tashkilotning iqtisodiy barqarorligi susayib, faoliyati to'xtab qolishi mumkin. Shuning uchun o'quv markazlarda buxgalteriya hisobi tizimini to'g'ri



tashkil etish va yuritish dolzarb masalalardan biridir. Maqola mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim, yoshlar siyosati va iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish borasidagi davlat siyosati bilan uzviy bog‘liq. Prezident ta’lim sohasini rivojlantirish, xususi ta’lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilishni doimiy ravishda ta’kidlab keladi. Shu sababli o‘quv markazlarining moliyaviy hisobi va hisobotlarini xalqaro standartlarga mos ravishda yuritish hamda qonuniy asosda tashkil etish muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi – o‘quv markazlarda buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish, turli huquqiy shakllar (MCHJ, AJ, kooperativ, NT) bo‘yicha farqlarini aniqlash va ularni optimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir.

Vazifalar:

1. O‘quv markazlarda buxgalteriya hisobi yuritishning asosiy printsiplarini aniqlash;
2. Turli huquqiy shakllarda (MCHJ, AJ, kooperativ, NT) hisobot va soliq tartibini taqqoslash;
3. O‘quv markaz misolida amaliy tahlil va natijalarni ko‘rsatish;
4. Buxgalteriya hisobi samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar berish.

Adabiyotlar tahlili

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar bo‘yicha nazariy manbalar keng tahlil qilingan. Brown (2004) buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari, shaffoflik va hisobdorlik masalalarini o‘rganib, korxonalarda hisobotlar ishonchliligini ta’kidlaydi. O‘quv markazlar kabi xizmat ko‘rsatish sohasida daromadlarni aniqlashda “daromadni tan olish” printsipti muhim ahamiyat kasb etadi. 1. Flowe Dew & Miller (2012) moliyaviy boshqaruvda xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash va ichki nazorat tizimini joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Ta’lim xizmatlarida xarajatlar asosan o‘qituvchilar maoshi, ijara, kommunikatsiya va marketingga yo‘naltiriladi.



Shuning uchun xarajatlarni to'g'ri tasniflash buxgalteriya hisobi samaradorligini oshiradi. Hughes (2002) va O'Sullivan (2012) xizmat ko'rsatish sohasida moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqishda xizmat turlarining daromad manbalarini ajratib ko'rsatish muhimligini qayd etadi. O'quv markazlarida kurslar, seminarlar, onlayn darslar kabi turli xizmatlar daromadini ajratish zarur. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining soliq va buxgalteriya hisobiga oid qonun hujjatlari, xususan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun, "Soliq kodeksi" hamda "Moliya va buxgalteriya hisobi" bo'yicha me'yoriy hujjatlar o'quv markazlarining hisobotlarini tashkil etishda asosiy huquqiy bazani tashkil etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi samaradorligi faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy tajriba va qonuniy tartibga rioya qilish bilan bog'liq. Shuning uchun o'quv markazlarda hisobotlarni to'g'ri tashkil etish uchun amaliy misollar va real ma'lumotlar asosida tahlil qilish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda o'quv markazlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning huquqiy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy usullardan foydalanildi:

Hujjatlar tahlili – O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, Moliya vazirligi me'yoriy hujjatlari, shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va o'quv markazlarining ichki buxgalteriya hujjatlari (balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, daromad va xarajatlar smetasi) o'rganildi. Ushbu usul buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini aniqlashga xizmat qildi. Taqqoslash (comparative analysis) – MCHJ, AJ, kooperativ va nodavlat notijorat tashkilot (NT) shaklida faoliyat yuritayotgan o'quv markazlarning moliyaviy hisobotlari, soliq yuklamasi, hisobot topshirish tartibi va daromad manbalari o'zaro taqqoslandi. Bu orqali turli huquqiy shakllarning buxgalteriya hisobidagi o'ziga xos farqlari aniqlab berildi. Ekspert



so‘rovi – amaliyotda faoliyat yuritayotgan buxgalterlar, moliyaviy menejerlar hamda ta’lim sohasidagi mutaxassislar bilan suhbatlar va intervyular o‘tkazildi. Ekspert so‘rovi natijalari hisobni yuritishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo‘llarini aniqlashga yordam berdi.

Amaliy misol (case study) – tanlab olingan o‘quv markazlarining real moliyaviy faoliyati asosida daromadlar, xarajatlar, foyda va zarar ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu usul nazariy xulosalarni amaliy holatlar bilan mustahkamlash imkonini berdi. Statistik tahlil usuli 2023–2024 yillar davomida o‘quv markazlarning moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganilib, ularning o‘zgarish tendensiyalari baholandi. Bu usul moliyaviy barqarorlikni aniqlashga xizmat qildi.

Sampling (namuna tanlovi):

Tadqiqot doirasida o‘quv markazlarning turli huquqiy shakllarini ifodalovchi 4 ta tashkilot tanlab olindi (MCHJ, AJ, kooperativ va NT). Har bir tashkilot bo‘yicha **2023–2024 yillar** moliyaviy hisobotlari, daromad va xarajatlar tuzilmasi, soliq to‘lovlari va buxgalteriya hisobi yuritish amaliyoti tahlil qilindi. Namuna tanlovi maqsadli (purposeful sampling) usulida amalga oshirilib, tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga qaratildi.

Tahlil va natijalar

O‘quv markazlarda daromadlar va xarajatlar strukturasining batafsil tahlili

O‘quv markazlarning moliyaviy barqarorligi ularning daromad manbalari va xarajatlar tuzilmasiga bevosita bog‘liq. Ta’lim xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashgan bunday markazlarda daromadlar asosan xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, mavsumiylik va talab darajasiga qarab o‘zgarib turadi.

Asosiy daromad manbalari. Kurs va darslar uchun abonent to‘lovlari Bu o‘quv markazlarining eng barqaror daromad manbai hisoblanadi. Talabalar tomonidan oyma-oy yoki kurs bo‘yicha to‘lanadigan to‘lovlar markazning asosiy pul oqimini shakllantiradi. Abonent to‘lovlari kurs turi, o‘qituvchi malakasi va dars shakliga (offline/online) bog‘liq ravishda farqlanadi. Imtixon va sertifikatlar uchun



to'lovlarKo'plab markazlar xalqaro sertifikatlar (IELTS, CEFR, IT sertifikatlar) bo'yicha imtihon tashkil etadi. Ushbu xizmatlar yuqori foyda marjasiga ega bo'lib, daromadni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.Onlayn darslar va qo'shimcha xizmatlarRaqamli ta'lim rivojlanishi natijasida video darslar, individual konsultatsiyalar, test platformalari va mobil ilovalar orqali qo'shimcha daromad manbalari paydo bo'ldi.Kitob, darslik va o'quv materiallarini sotishO'quv markazlar ko'pincha o'z metodik materiallarini ishlab chiqib, ularni talabalariga sotish orqali qo'shimcha daromad oladi. Bu nafaqat daromad manbai, balki brendni mustahkamlash vositasi ham hisoblanadi.

Asosiy xarajatlar:

O'qituvchilar va xodimlar ish haqi. Xarajatlarning eng katta ulushini tashkil qiladi (50–70%). O'qituvchilar malakasi yuqori bo'lsa, xarajat ham shunga mos ravishda oshadi, biroq bu xizmat sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijara va kommunal xizmatlar. Ayniqsa, markaz shahar markazida joylashgan bo'lsa, bu xarajatlar sezilarli bo'ladi. Elektr, suv, internet va isitish xarajatlari ham doimiy xarajatlarga kiradi.

Marketing va reklama xarajatlari. Raqobat kuchli bo'lgan bozor sharoitida ijtimoiy tarmoqlar, Google Ads, bannerlar va aksiyalar uchun doimiy mablag' ajratiladi.

Ta'lim materiallari va texnik uskunalar. Kompyuterlar, proyektorlar, doskalar, litsenziyalangan dasturlar hamda platformalar uchun sarf qilinadigan xarajatlar kiradi.

Soliqlar va majburiy badallar. Soliq turi markazning huquqiy shakliga bog'liq bo'lib, daromad va foyda darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Turli huquqiy shakllarda buxgalteriya hisobi farqlarining tahlili. O'quv markazning huquqiy shakli uning buxgalteriya hisobi tizimi, soliq yuklamasi va hisobot topshirish tartibini belgilab beradi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)



MCHJ shakli O‘zbekistonda o‘quv markazlar uchun eng keng tarqalgan hisoblanadi. Soliq rejimi: foyda solig‘i, QQS (agar majburiy soliq to‘lovchi bo‘lsa), jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy soliq.

Buxgalteriya hisobi: “Korxona” buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida yuritiladi.

Hisobotlar: moliyaviy balans, foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari hisobotlari.

Afzalligi: boshqaruv oddiy, daromad va xarajatlar aniq nazorat qilinadi.

Kamchiligi: soliq yuklamasi nisbatan yuqori.

Aksiyadorlik jamiyati (AJ). AJ yirik ta’lim loyihalari yoki investorlar ishtirokidagi markazlar uchun qulay.

Soliq rejimi: MCHJ bilan bir xil, ammo dividend solig‘i mavjud.

Buxgalteriya hisobi: aksiyalar, dividendlar, ustav kapitali harakati bo‘yicha alohida hisob yuritiladi.

Hisobotlar: moliyaviy hisobotlardan tashqari, aksiyadorlar majlisi va auditorlik xulosasi talab etiladi.

Afzalligi: investitsiya jalb qilish imkoniyati yuqori.

Kamchiligi: hisob-kitoblar murakkab va xarajatli.

Kooperativ shakli. Kooperativlarda o‘quv markaz egaligi a’zolar o‘rtasida taqsimlangan bo‘ladi.

Soliq rejimi: kooperativlarga mo‘ljallangan maxsus rejimlar.

Buxgalteriya hisobi: a’zolarning ulushlari, foyda taqsimoti, ichki hisob-kitoblar asosida yuritiladi.

Hisobotlar: a’zolarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlar va umumiy yig‘ilish bayonnomalari.

Afzalligi: ijtimoiy yo‘naltirilgan, boshqaruv jamoaviy.

Kamchiligi: qaror qabul qilish jarayoni sekin.

Nodavlat notijorat tashkilot (NT)



NT shaklidagi o'quv markazlar asosan ijtimoiy loyihalar bilan shug'ullanadi.

Soliq rejimi: foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar, maqsadli mablag'lar soliqlardan ozod.

Buxgalteriya hisobi: grantlar, homiylik mablag'lari va ularning maqsadli sarfi bo'yicha alohida hisob yuritiladi. Hisobotlar: donorlar oldida hisobot, moliyaviy va ijtimoiy samaradorlik hisobotlari.

Afzalligi: soliq imtiyozlari mavjud.

Kamchiligi: tijorat faoliyati cheklangan.

Amaliy misol (Case study): O'quv markaz moliyaviy natijalarining solishtirma tahlili. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra:

MCHJ shaklidagi markaz moliyaviy jihatdan eng barqaror bo'lib, daromadlar prognoz qilinadi, lekin soliq xarajatlari yuqori. AJ shaklidagi markaz investorlar mablag'i hisobiga tez rivojlanadi, ammo hisobot tizimi murakkab. Kooperativ markazda foyda a'zolar o'rtasida adolatli taqsimlanadi, biroq investitsiya jalb qilish qiyin. NT shaklidagi markaz grant va homiylik hisobiga faoliyat yuritadi, soliq yuki past, ammo moliyaviy mustaqilligi cheklangan. O'quv markazning huquqiy shaklini to'g'ri tanlash uning moliyaviy barqarorligi, soliq yuklamasi, hisob yuritish tizimi va rivojlanish strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tijorat maqsadidagi o'quv markazlar uchun **MCHJ**, yirik loyihalar uchun **AJ**, ijtimoiy yo'nalishdagilar uchun esa **NT** shakli eng maqbul hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

O'quv markazlar MCHJ, AJ, kooperativ yoki nodavlat notijorat tashkilot shaklida faoliyat yuritishiga qarab, ularning hisob yuritish tartibi, hisobot topshirish talablari va soliq majburiyatlari sezilarli darajada farqlanadi. Bu esa har bir huquqiy shakl uchun moslashtirilgan buxgalteriya tizimini talab qiladi. Soliq yuklamasining darajasi huquqiy shaklga qarab o'zgaradi. MCHJ va AJ shaklidagi o'quv markazlarda foyda solig'i, QQS va ish haqi bilan bog'liq soliq majburiyatlari yuqori bo'lsa, NT va kooperativ shaklidagi markazlarda soliq imtiyozlari, grantlar va



a'zolar ulushi bilan bog'liq hisob-kitoblar ustuvor ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlarning shaffof yuritilishi ta'lim sifati va ishonchlilikni oshiradi. Ochiq, to'g'ri va o'z vaqtida yuritilgan moliyaviy hisobotlar o'quv markaz faoliyatining samaradorligini oshiribgina qolmay, investorlar, ota-onalar, talabalar va donorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Takliflar:

O'quv markazlar uchun maxsus buxgalteriya dasturiy modulini ishlab chiqish:

Ushbu modul orqali abonent to'lovlari, o'qituvchilar ish haqi, ijara xarajatlari, soliq hisoblari va moliyaviy hisobotlar avtomatlashtiriladi, bu esa inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi. Ichki nazorat va audit tizimini joriy etish. O'quv markazlarda ichki audit mexanizmlarini yo'lga qo'yish buxgalteriya hisobining ishonchliligini oshiradi, moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Buxgalterlar va moliya xodimlari uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Soliq qonunchiligi va hisobot talablaridagi o'zgarishlar sababli xodimlar bilimini doimiy yangilab borish zarur. Standartlashtirilgan hisobot shakllarini ishlab chiqish. O'quv markazlar faoliyatiga mos, soliq va statistika organlari talablariga javob beradigan yagona hisobot shakllari ishlab chiqilishi hisob yuritishni soddalashtiradi va shaffoflikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, R. (2004). Accounting Principles and Practices. New York: Academic Press.
2. Hughes, J. (2002). Financial Reporting in Service Industries. London: Finance Press.
3. O'Sullivan, D. (2012). Management Accounting in Service Sector. Oxford: Oxford University Press.
4. FloweDew, L., & Miller, S. (2012). Cost Management in Education. Journal of Education Finance, 38(2), 112–130.



5. Read, J. (2012). Accounting for Nonprofit Organizations. Journal of Nonprofit Accounting, 29(1), 45–60.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
8. IFRS (International Financial Reporting Standards).
9. Karimov I.A. — “O‘zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida”.
Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
10. Hoshimov B. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”. Darslik.
Toshkent, 2004-yil.